



Gulnoza MATYAKUBOVA

Urganch davlat pedagogika insituti dotsenti v.b

E-mail: gulnozamatyakubova1992@gmail.com

Guli URAZOVA,

Urganch davlat pedagogika insituti magistranti

Reviewer Prof. M.Xajiyeva

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXLOQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA NOSIRIDDIN TUSIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Mazkur maqolada Nosiriddin Tusi asarlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida falsafiy-axloqiy qarashlarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Tusi asarlarida axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlariga, uning jamiyatdagi o'rni va tabiiy olam bilan aloqalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nosiriddin Tusi, axloqiy tafakkur, boshlang'ich sinf, tarbiya, ta'lim, qadriyatlar, g'oya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАСЛЕДИЯ НАСИРИДИНА ТУСИ В ФОРМИРОВАНИИ МОРАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос развития философско-нравственных взглядов учащихся начальных классов через произведения Насириддина Туси. В трудах Туси особое внимание уделяется нравственным, духовным и социальным ценностям, их роли в обществе и связи с природным миром.

Ключевые слова: Насириддин Туси, нравственное мышление, начальная школа, воспитание, образование, ценности, идеи.

USING THE HERITAGE OF NASSIRIDDIN TUSI IN FORMING THE MORAL THINKING OF PRIMARY STUDENTS

Abstract

This article examines the development of philosophical and moral views among primary school students through the works of Nasir al-Din al-Tusi. In Tusi's writings, special attention is given to moral, spiritual, and social values, as well as their role in society and connection with the natural world.

Keywords: Nasir al-Din al-Tusi, moral thinking, primary education, upbringing, teaching, values, ideas.

Kirish. Hozirgi kunda pedagoglarning eng katta burchi va vazifasi bu o'quvchilarni bilimli, shu bilan birgalikda axloqan yetuk va ma'nan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni axloqiy tafakkurlarini rivojlantirish, ularga halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hislarini singdirish o'ta muhim. Bu borada sharq mutafakkirlaridan biri bo'lgan Nosiriddin Tusi asarlarining o'rni beqiyos. Tusi o'z asarlarida shaxs tarbiyasida axloq va tafakkur hamohang tarzda ya'ni bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida talqin etadi. Negaki inson tarbiyasi faqatgina aql bilan emas, balki yuksak axloqiy fazilatlar bilan mukammallikka erishadi. Ular bir-biriga uyg'unlashib inson kamolatinining asosiy ustunlaridan birini tashkil qiladi, ular orqali inson komillikka erishadi.

Nosiriddin Tusi o'z zamonasida bilimligi, aql-zakovati va teran fikrlari tufayli zamondoshlari orasida mashhur bo'lgan. Tusiyning pedagogik qarashlari "Axloqi Nosiriy", "Risola dar axloq" kabi asarlarida namoyon bo'lgan. Ushbu pedagogik qarashlarini boshlang'ich ta'limda quyidagi g'oyalardan foydalanish orqali ularning axloqiy tafakkurini yanada rivojlantirib, ularni mustaqil va kreativ fikrlaydigan, ma'naviy yetuk va ijtimoiy mas'uliyatni his qila oladigan shaxslar sifatida shakllantirish mumkin:

- yaxshilik va yomonlikni bir-biridan ajrata olish, ya'ni o'quvchilarni ongli ravishda tarbiyalash, har bir voqea hodisani

oqibatini o'ylashga undash, yaxshilikni kamolatga yetkazuvchi, yomonlini esa tanazzulga sabab bo'luvchi omil sifatida uqtirish;

- mehnatsevarlik va halollik hislarini shakllantirish-bu ikki tushuncha insonning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanib, halol luqma va mehnat orqali har kim o'z hayotini bunyod qilishini o'rgatish;

- barchani birday hurmat qilishga o'rgatish, ya'ni bu orqali insoniy munosabatlarni mustahkamlash, bu orqali o'quvchilarda mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

-jamoaviylik tushunchasini rivojlantirish- jamoadagi guruhdoshlarini fikrlarini hurmat qilish, bir-birlariga yordamlashish, ma'suliyat hissini shakllantirish, birgalikda harakat qilib natijaga erishishga orqali o'quvchilarda o'zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, Nosiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarida yosh bolalarning tarbiyasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Jumladan asarda alloma bola dunyoga kelganidan unga kerak bo'ladigan dastlabki narsalar haqida so'z yuritib, "bola bo'lgach ilk navbatda unga yaxshi bir ot qo'yimoq lozimdir. Nomunosib ot qo'ysalar, butun umri bo'yi bundan xijolat chekar, kayfiyati buziladi. So'ngra aqlli va sog'lom bir doya topmoq lozimdir, chunki yomon odat va xastalikning ko'pi sut vositasi bilan bolaga o'tar. Shunday ekan, ota-onaning farzand oldidagi eng katta burchlaridan biri bu-unga yaxshi ism tanlab qo'yishidir. Negaki ism inson hayotining ajralmas qismi bo'lib,

uning ma'naviy dunyosini aks qildiradi. Ma'noli va yaxshi ism orqali bolada faxr, ishonch hissi ham ortadi. Shuning uchun ham Tusiyo'z asarlarida ushbu masalaga alohida to'xtalib o'tgan. Har bir ota-ona farzandiga ism tanlayotganida albatta uning ma'nosiga, tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qilishi zarur. Ma'noli ism bolaning bevosita xarakteriga, uning kelajakdagi hayotiga, ruhiy dunyosiga ham ta'sir qilishi mumkin. Bu esa tarbiyaning boshlang'ich qadami hisoblanib, u orqali ota-ona o'z farzandiga faqat yaxshilik va ezigulikni tilaydi.

Ta'lim jarayonida Nosiriddin Tusiyning merosini tadbqiq qilishda turli xil pedagogik usullardan foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Tusiyning pedagogik qarashlarini quyidagi usullar orqali singdirish mumkin:

-kichik rolli o'yinlar va sahna ko'rinishlari orqali- ushbu usul boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tafakkur va tarbiyani shakllantirishda katta yordam beradi. Ular o'zlarining ishtiroki asosida hayotiy masalalarga asoslangan sahna ko'rinishlarini sahnalashtirishadi. O'quvchilar bu orqali yaxshi inson, yomon inson, halol va mehnatkash inson obrazlarda chiqib, o'zlariga ibrat olishadi. Olimning ilgari surgan ezigulik, mehnatkashlik, to'g'rilik kabi fazilatlar rolli o'yinlar orqali onglarida yanada mustahkamlanadi.

-hikoya va ertaklarni o'qitish orqali- ushbu usul orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va mavzuni og'zaki bayon qilish qobiliyatlari shakllanadi. Shuningdek, o'quvchilarning tasavvur dunyosi va nutq madaniyati ham rivojlanadi. Bunday darslar orqali o'quvchilar voqealarni tahlil qilib, ijobiy va salbiy qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berishni o'rganishadi. Natijada, ular real hayotda qanday yo'l tutish kerakligini, rostgo'ylik va yaxshilik insonning eng yuksak fazilati ekanini anglay boshlaydilar. Shuningdek, ertak va hikoyalardagi axloqiy g'oyalarni muhokama qilish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini asoslab ayta olish, boshqalarning qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

-suhbat metodi orqali- ushbu usulda o'quvchilar va o'qituvchi bevosita fikr almashib, o'z fikrlarini ifoda qilishadi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning tafakkur dunyosini, axloqiy tushunchalarini aniqlab olishi mumkin. Natijada, suhbat metodi o'quvchilarni faqat tinglovchi emas, balki faol fikrlovchi, o'z nutqini yetkazib beruvchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu o'rinda o'quvchilarga turli xil savollar berish mumkin, shu orqali bu obrazlarni yanada yaxshiroq anglaydi. Masalan: "yaxshi inson deganda nimani tushunasiz?", "nima uchun halollik ezigu fazilatlar safiga kiradi?", "hamma insonlar adolatli bo'lishi kerakmi?". Shu tariqa, Tusiyo'z merosidagi axloqiy va falsafiy g'oyalari suhbat metodi orqali o'quvchilarning ongida yanada mustahkam o'rnatiladi.

Ta'lim bilan bolalarga erta bolalikdanoq ta'lim berishni boshlagan va ma'lum bir bosqichda ularning keyingi hayotida yo'l boshchi bo'lib, ularni rivojlanish va kamolot yo'liga olib boradigan kishilar shug'ullanishi mumkin. Ta'lim tushunchasi – inson faoliyatining jismoniy va aqliy, kuch, qobiliyat, kuch va inson hayotining boshqa sohalariga taalluqlidir. Ammo, axloqiy omil ular ichidagi eng asosiy omillardan biridir.

Ta'lim tizimi uchun xarajatlarni kamaytirishni maqsad qilgan innovatsiyalar uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Bizning fikrimizcha, ta'lim muammolarini eng qisqa muddatlarda ko'rib chiqish uchun ta'lim sohasiga oid turli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislardan iborat ishchi guruhini tashkil etish zarur bo'lib, ular o'z vakolatlaridan kelib chiqib, muammolarni hal qila oladilar.

O'quvchilarning bilim egallash jarayonida ular qiziqishining pastligi, shuningdek, fan o'qituvchisi va talabalar o'rtasida ishonchli munosabatlarning yo'qligi, tizimli darsni

olib borish usullarining mavjud emasligi asosiy to'siqlardan hisoblanadi. Binobarin, har yili ta'lim maqsadlariga bir qadam yaqinlashib borishi uchun mas'uliyatli fuqaroni tarbiyalash bo'yicha uzoq muddatli dastur yaratishda ushbu muammolarni hal etish yo'llarini izlash zarur. Shubhasiz, talabalarning, xususan, "Nosiriddin Tusiyning pedagogik g'oyalari bilan tanishishi, bilim va malakaga ega bo'lishi faoliyatning ta'lim-tarbiya sohalarini hal etishda muhim qadamdir".

Xususan, Nosiriddin Tusiyo'z insonni bolalikdan o'rgatish, tarbiyalash kerak, deb hisoblaydi, Suqrot kabi bola ham oson egiladigan "yosh shox"ga o'xshaydi, ta'lim va tarbiyaning maqsadi baxtga erishishdir, deb hisoblagan. Nosiriddin Tusiyning tarbiyaviy tavsiyalarini avvalo oilada, keyin esa maktabda singdirish kerak degan fikrni ilgari suradi. Olimning fikricha, bola ustozni aqliy, xudodan qo'rqadigan, yoqimli so'zli, o'zini hurmat qiladigan bo'lishi kerak. Bola, o'z navbatida, o'qituvchi va tarbiyachini hurmat qilishi, kerak bo'lsa, ularga yordam berishdan bosh tortmasligi kerak.

Shu boisdan ham Nosiriddin Tusiyning oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ta'limotlardan foydalanish maqsadida jalb qilish holatlarini amaliy qo'llash ustuvor ahamiyatga ega. Nosiriddin Tusiyning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotlari bu boradagi ko'rsatmalarga boy hisoblanadi. Har bir pedagog bunga murojaat qilib, foydalanishlari va ta'lim jarayoni orqali muvaffaqiyat darajasini oshirishlari mumkin.

Nosiriddin Tusiyning axloqiy qarashlaridan foydalanish imkoniyatlari.

– sevgining utopiya (farovon jamiyat) sifatidagi mohiyatiga urg'u berish;

– o'zini tutmaslik va o'z-o'zini hisobga olishga urg'u berish;

– zulmat va axloqsizlikdan ma'naviy poklanish jarayoniga urg'u berish.

Umumta'lim muassasalari o'qituvchilari asosan Nosiriddin Tusiyo'z manfaatlarini rivojlantirish g'oyasini talabalarni axloqiy tarbiyalash bilan uyg'unlashtiradi, shuningdek:

– har qanday kuch va irodani rivojlantirish bilan birlashtirilgan axloqiy va tarbiyaviy dastur bilan;

– aniq axloqiy dasturlar bilan va tabiiy kuchlarning rivojlanishi bilan birgalikda bog'liqligi;

– tabiiy ta'lim va ta'lim dasturlari bilan o'zaro aloqadorligi.

Demak, Nosiriddin Tusiyo'z "Odamlar bilan aqliga qarab gaplash" hikmatini hisobga olib, talabalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash uchun avvalo ularning xususiyatlarini o'rganishni o'qituvchilarga tavsiya qiladi.

Nosiriddin Tusiyo'z insonning tabiat bilan hamohangligi, unga ergashishi va kuchning bosqichma-bosqich o'sib borishiga e'tibor qaratadi. Talabalarni tarbiyalash jarayonida uning tabiatini, uning ruhi kuchlarining bosqichma-bosqich jarayonini bilish va uning o'sish bosqichlari bilan bir vaqtda va sinxron ravishda uning tarbiyasini boshlash kerak. Ilohiy va diniy mohiyatga ko'ra, tarbiya rejasi insonni olamning boshlanishi bilan tanishtiradigan, uning irodasi, bilimi va qudrati ilohiy irodaga bo'ysunadigan darajaga ko'tarilishi kerak.

Nosiriddin Tusiyo'z shunday ta'kidlaydi: "Talaba ilmning barcha mayda-chuydalarini sinchiklab o'rganib, uni o'ziga odat qilib olishi zarur, chunki ilmning (bilimning) mayda-chuydalarini talabani fikrlay olishi va bir xulosaga kela olishidan dalolat beradi. Suhbatning boshida talaba suhbat qanday foydali bo'lishi haqida o'ylashi kerak, chunki ular so'z, o'q kabi, uni kamondan ozod qildi, siz uni qaytarib berolmaysiz, deyishadi. Shuning uchun, so'zni talaffuz qilishdan oldin, har doim gapirishga arziydimi yoki yo'qmi, deb o'ylash kerak. Bu

musulmon huquqi (fiqh) bilan qonuniylashtirilgan [6]". Talaba o'z vaqtidan oqilona foydalanishi va boshqalarning bilimlaridan (tajribalaridan) foydalanishi kerak.

Bugungi kundagi globalashuv davrida yosh avlod ongiga yot g'oyalar kirib kelayotgan bir paytda, Tusiyning axloqiy-falsafiy merosi o'quvchilarning milliy va insoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham, boshlang'ich ta'lim jarayonida olimning asarlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning axloqiy tafakkurini shakllantirish, ularni komil va barkamol inson sifatida tarbiyalash mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, olimning merosi va yaratgan asarlari shunchaki oddiy asar emas, balki ta'lim tizimi uchun kerak bo'lgan axloqiy tafakkurni rivojlantiruvchi mukammal manba hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda Tusiyning g'oyalaridan foydalanish o'quvchilarda nafaqat axloqiy fazilatlarni, balki tafakkur madaniyatini, hayotga ijobiy munosabatni va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Uning g'oyalari o'quvchilarni ezgulikka yetaklaydi, ularni hayotda to'g'ri yo'lni tanlay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Arthur Goldschmidt, Lawrence Davidson. "A Concise History of the Middle East", Westview Press, 2005. Eighth edition, – pp. 136.
2. Aykut Kar, Anar Gafarov. Bilime Adanmış Ömür: Nasiruddin Tusi. İstanbul: Gece Kitaplığı Yay., 2017. – 295 s
3. Aytək Zakirqızı (Məmmədova). Nəsirəddin Tusinin dünyagörüşü. Bakı, Elm, 2000. səh. 22
4. Badie Bertrand. La philosophic politique de l'hellenisme musulman l'oeuvre de Nasered-Din Tusi. Revue franHaise de science politique. Paris, 1977, vol.27, №2, pp. 290–304.
5. Boratav, Pertev Naili (2014), Nasreddin Hoca (6 bas.), İstanbul: Isık Yayınları, s. 77.
6. Seyyed Hossein Nasr, " Title Islamic philosophy from its origin to the present: philosophy in the land of prophecy", Publisher SUNY Press, 2006. pp. 167.